
G'alla mavsumi boshlandi

Rishton tumanida ham 2023 yil xosili uchun ekilgan boshqoli don o'rim-yig'im mavsumiga kirishildi. Otryad usulida ish tashkil etilib, 21 ta kombayn hamda 100 dan ortiq don tashish transportlari mavsumga jalb etilgan. Bug'doyni nobudgarchiliksiz, tez va sifatli o'rib-yig'ib olish bo'yicha hokimlik don shtabi tomonidan biriktirilgan xodimlar hamda qishloq xo'jaligi korxonalarini va IIB tomonidan barcha choratadbirlar belgilangan. Xavfsizlik choralari uchun mas'ullar biriktirilgan. O'rim-yig'imga puxta tayyorgarlik ko'rib, hosilni nest-nobud qilmay, qisqa fursatlarda yig'ishtirib olish uchun otryad tashkil etilgan.

2023-06-05 16:32:04